

MEKSIKADA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATOR(VIO) DASTURINING AHAMIYATI VA IMKONIYATLARI

Jumayev Asadbek Shukhrat o'g'li

JIDU, XIM fakulteti, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi magistranti.

+998-77-292-44-44. jumayevasadbek3244@gmail.com

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich

JIDU, Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrası o'qituvchisi.

+9989-0-986-35-38. ishmuradov@uwed.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163852>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Meksikada vakolatli iqtisodiy operator (VIO) tizimining ahamiyati, muammolari va uni takomillashtirish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Meksika xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan davlat sifatida bojxona nazoratini kuchaytirish va logistika jarayonlarini soddalashtirish maqsadida VIO tizimini joriy qilgan. Maqolada VIO dasturining amaliyotdagi holati, kichik va o'rta korxonalar uchun mavjud to'siqlar, byurokratik muammolar yoritilgan. Muammoni hal qilish yo'llari sifatida maqomini olish jarayonini raqamlashtirish, imtiyozlar doirasini kengaytirish va xalqaro tan olish kelishuvlarini rivojlantirish taklif qilinadi.

Takliflar amalga oshirilganda, Meksikaning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligi oshishi, iqtisodiy samaradorlik ortishi va logistika tizimi yanada kuchayishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: Vakolatli iqtisodiy operator, bojxona imtiyozlari, xalqaro savdo, logistika tizimi, raqamlashtirish, Meksika, o'zaro tan olish.

THE IMPORTANCE AND OPPORTUNITIES OF THE AUTHORIZED ECONOMIC OPERATOR (AEO) PROGRAM IN MEXICO

Abstract. This paper analyzes the significance, challenges, and improvement pathways of the Authorized Economic Operator (AEO) program in Mexico. As a key participant in international trade, Mexico has implemented the VIO framework to streamline customs processes and enhance trade security. The article examines the current implementation of the AEO program, identifies challenges for small and medium-sized enterprises (SMEs), and outlines bureaucratic obstacles that hinder wider adoption. The study proposes digitalization of the certification process, expansion of benefits, and enhancement of mutual recognition agreements. If implemented, these measures are expected to improve Mexico's competitiveness in international trade, strengthen logistics networks, and increase economic efficiency.

Keywords: Authorized economic operator, customs privileges, international trade, logistics system, digitalization, Mexico, mutual recognition.

ЗНАЧЕНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ПРОГРАММЫ УПОЛНОМОЧЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОПЕРАТОРА (УЭО) В МЕКСИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение, существующие проблемы и пути совершенствования системы уполномоченных экономических операторов (УЭО) в Мексике. Как одна из ключевых стран международной торговли, Мексика внедрила данную систему с целью повышения эффективности таможенных процедур и обеспечения безопасности. В статье анализируются текущие условия реализации программы УЭО, выделяются барьеры для малого и среднего бизнеса, а также бюрократические сложности. В качестве решений предлагаются цифровизация процедур, расширение преференций и развитие соглашений о взаимном признании. Реализация данных предложений предполагает повышение конкурентоспособности Мексики в мировой торговле, улучшение логистики и увеличение экономической эффективности.

Ключевые слова: Уполномоченный экономический оператор, таможенные льготы, международная торговля, логистическая система, цифровизация, Мексика, взаимное признание.

Kirish. Meksika xalqaro savdo jarayonida strategik pozitsiyaga ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lib, Shimoliy va Janubiy Amerika o'rtasidagi asosiy tranzit va logistika markazi hisoblanadi. Aholi sonining ko'pligi, rivojlangan infratuzilma va AQSh bilan yaqin savdo aloqalari tufayli Meksika global yetkazib berish zanjirlarida muhim o'rin tutadi. Shu bois, savdo xavfsizligi va tezkor bojxona rasmiylashtiruvi mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan¹.

Vakolatli iqtisodiy operator (VIO) dasturi xalqaro savdo xavfsizligini ta'minlash va bojxona nazoratini soddalashtirish maqsadida Jahon bojxona tashkiloti (WCO) tomonidan 2005-yilda tavsiya etilgan². Meksika bu dasturni 2011-yildan boshlab joriy qila boshlagan³. VIO dasturining konsepsiyasi xalqaro miqyosda ishonchli korxonalarni aniqlash va ularga bojxona sohasida soddalashtirilgan tartiblar berishga asoslangan bo'lib, bu orqali global savdo zanjiri xavfsizligi ta'minlanadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (masalan, Arvizu, 2017; González et al., 2019; Castañeda, 2021) VIO maqomini olgan kompaniyalar eksport-import operatsiyalarida vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirganini ko'rsatmoqda⁴.

¹ UNCTAD, 2022, *Trade Facilitation and Customs Procedures in Mexico*

² WCO, 2023, *Authorized Economic Operator (AEO) Programmes*

³ SAT Mexico, 2023, *Programa Operador Económico Autorizado*

⁴ *Journal of International Trade & Customs Studies*

Shu bilan birga, dasturga kirishda yuzaga kelayotgan byurokratik to'siqlar, ariza berishdagi murakkabliklar va kichik biznes uchun nomutanosib talablar kabi omillar tizimning to'liq samara berishiga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, VIO tizimining Meksika iqtisodiyotiga ta'siri hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Xususan, kichik va o'rta korxonalarni ushbu tizimga jalb qilishdagi muammolar, texnologik va institutsional cheklovlar, shuningdek, xalqaro tan olinuvchanlik darajasi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi — Meksikadagi VIO dasturining dolzarbligi, samaradorlik darajasi, amaliy muammolari va takomillashtirish istiqbollarini tahlil qilishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ VIO dasturining tarixiy rivojlanishini ko'rsatish;
- ✓ Meksikadagi VIO tizimining amaliy holatini baholash;
- ✓ VIO maqomi olishdagi to'siqlarni tahlil qilish;
- ✓ Ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- ✓ Xalqaro tajribani taqqoslash asosida takomillashtirish yo'llarini belgilash.

Tadqiqot materiali sifatida Meksika bojxona xizmatining rasmiy hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (WCO, UNCTAD, WTO) tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar va sohaning dolzarb holatini aks ettiruvchi manbalar asos bo'ldi.

Shu sababli, mazkur maqola Meksikadagi VIO dasturining dolzarbligi, mavjud muammolari va ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini tahlil qilishga qaratilgan.


VIO dasturining tarixiy rivojlanishi. VIO (Authorized Economic Operator) dasturining ildizlari 2005-yilga borib taqaladi. Ushbu yilda Jahon bojxona tashkiloti (World Customs Organization – WCO) tomonidan SAFE Framework of Standards hujjati qabul qilingan bo'lib, bu global savdo zanjiri xavfsizligini ta'minlash va bojxona tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan edi⁵. VIO dasturi ushbu hujjatning asosiy elementlaridan biri sifatida shakllantirilgan.

Meksika ushbu tashabbusga ijobiy munosabat bildirgan va 2011-yildan boshlab o'z milliy VIO dasturini rasmiy ravishda ishga tushirgan. Mazkur dastur Meksika bojxona xizmatining (Servicio de Administración Tributaria – SAT) doirasida amalga oshirilib, dastlab yirik eksportyor va importyor kompaniyalarga yo'naltirilgan edi⁶.

⁵ World Customs Organization (WCO). (2023). *Authorized Economic Operator (AEO) Programmes*. Retrieved from <https://www.wcoomd.org>

⁶ SAT Mexico. (2023). *Programa Operador Económico Autorizado (OEA)*. Retrieved from <https://www.sat.gob.mx>

1-rasm. Meksikada AEO maqomiga ega bo'lgan kompaniyalar sonining o'sishi



7


2018–2023 yillar oralig'ida Meksikada vakolatli iqtisodiy operator (VIO) maqomini olgan kompaniyalar soni 150 tadan 390 tagacha oshgan. Bu o'sish tendensiyasi VIO tizimining mamlakat ichida tobora ommalashib borayotganini ko'rsatadi.

Bu davr ichida bir necha muhim omillar VIO dasturiga ishtirokchilar sonining ortishiga ta'sir qilgan:

- ✓ SAT tomonidan raqamlashtirish islohotlari (arizalarni onlayn topshirish, real vaqtlil monitoring);
- ✓ Xalqaro tan olish kelishuvlari (MRA) sonining ortishi;
- ✓ Bojxona soddalashtirish choralari va ishonchli korxonalarga imtiyozlar berilishi.

Shuningdek, 2020-yildan keyin COVID-19 pandemiyasi savdo zanjirlariga xavf tug'dirgani sababli ko'plab kompaniyalar VIO maqomini olish orqali bojxona tartiblarida barqarorlik va ustuvorlikka erishishni maqsad qilgan. Bu ham korxona sonining keskin o'sishiga sabab bo'lgan.

2-rasm. AEO dasturidan foydalanuvchi kompaniyalar taqsimoti (sohalar bo'yicha)



8

⁷ SAT Mexico. (2023). *Estadísticas del Programa OEA*. Servicio de Administración Tributaria. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>

VIO (Vakolatli iqtisodiy operator) dasturidan foydalanuvchi kompaniyalar tarkibini sohaga qarab tahlil qilish orqali ushbu tizimning qaysi iqtisodiy tarmoqlarda kengroq joriy etilayotgani aniqlanadi.

Ushbu taqsimot shuni ko'rsatadiki, VIO dasturidan eng ko'p foydalanayotganlar — logistika va tashqi savdo bilan bog'liq korxonalar. Chunki ular bojxona orqali uzluksiz harakat qiluvchi tovarlar bilan ishlaydi va soddalashtirilgan tartiblar ularning operatsion samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. VIO tizimining ishlab chiqarish sektorida qo'llanilishi ham ortib bormoqda, ayniqsa avtomobilsozlik, elektrotexnika va oziq-ovqat kabi tarmoqlarda, bu esa global yetkazib berish zanjirlariga ishonchli integratsiyani ta'minlaydi.

Shuningdek, bojxona brokerlari va servis firmalarining VIO tizimida ishtiroki ushbu tizimning xizmatlar sektorida ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda Meksika hukumati VIO dasturining qamrovini kengaytirish, uni kichik va o'rta biznes subyektlariga moslashtirish, shuningdek xalqaro tan olinuvchanligini ta'minlash maqsadida turli islohotlar o'tkazgan⁹. VIO dasturining xalqaro savdodagi o'rni, ayniqsa, AQSh, Kanada va Yevropa Ittifoqi bilan tuzilgan o'zaro tan olish bitimlari orqali mustahkamlangan. Bu esa Meksikaga raqobatbardosh bojxona siyosati yuritishda muhim ustunlik bergan.

Meksikada VIO ta'riflari. Tizim SAFE Framework of Standards (WCO) talablariga to'liq moslashtirilgan va ishtirokchi kompaniyalar uchun 5 xil toifadagi guvohnomalarni taklif qiladi. Bu toifalar kompaniyaning faoliyat yo'nalishi va tashqi savdodagi ishtirok shakliga qarab belgilanadi.

1. VIO – Importyorlar va eksportyorlar uchun

- Bu asosiy toifa bo'lib, Meksika bojxonasining eng ko'p beradigan guvohnomasi hisoblanadi.

- Kompaniyaning xavfsizlik siyosati, moliyaviy barqarorligi, bojxona qonunchiligiga rioya qilganligi va ichki audit tizimi asosida baholanadi.

- Imtiyozlar: bojxona rasmiylashtiruvda ustuvor xizmat, kamroq tekshiruv, tezlashtirilgan tranzit, import/eksport rejimlarida soddalashtirishlar.

2. VIO – Bojxona vakillari (Agentes Aduanales) uchun¹⁰

- Bojxona brokerlari (yuridik yoki jismoniy shaxslar) ushbu toifaga murojaat qiladi.

- Ular ishonchli vositachi sifatida bojxona nomidan hujjatlarni rasmiylashtirishda qatnashadi.

⁸ SAT Mexico. (2023). *Distribución sectorial de las empresas con certificación OEA*. Servicio de Administración Tributaria. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>

⁹ UNCTAD. (2022). *Trade Facilitation and Customs Procedures in Mexico*. Retrieved from <https://unctad.org>

¹⁰ https://www.gob.mx/cms/uploads/attachment/file/678716/Tercera_Etapa.pdf

- Imtiyozlar: avtomatlashtirilgan bojxona tizimidan foydalanish, ishonchli vositachi maqomi, mijozlar uchun ustuvor xizmat.

3. VIO – Yuk tashuvchilar (Transportistas) uchun

- Yuk tashuvchi kompaniyalar uchun mo'ljallangan (yer, havo, dengiz transporti).
- Xavfsizlik choralariga alohida e'tibor qaratiladi: GPS kuzatuv, kirish-chiqish nazorati, xodimlarni tekshirish.

- Imtiyozlar: yuk tranzitida xavfsizlik tekshiruvlari qisqaradi, bojxona yo'llarida tezroq o'tish imkoniyati.

4. VIO – Maxsus bojxona hududlari va ombor operatorlari uchun

- “Recintos fiscalizados” deb ataluvchi maxsus ruxsatga ega ombor va bojxona hududlarini boshqaruvchilar uchun.

- Ular import va eksport tovarlari uchun vaqtincha saqlash, qayta ishlash yoki rasmiylashtirish xizmatlarini ko'rsatadi.

- Imtiyozlar: yuklar bojxona tekshiruviga kamroq duch keladi, bojxona nazorati avtomatlash-tirilgan tizim orqali yuritiladi.

5. VIO – Xalqaro tan olingan (OEA Reconocido Internacionalmente) operatorlar uchun

- Bu toifadagi kompaniyalar Meksikaning imzolagan MRA (Mutual Recognition Agreements) doirasida boshqa davlatlarda ham VIO maqomida tan olinadi.

- Hozirda Meksika quyidagi davlatlar bilan MRA imzolagan: AQSh (C-TPAT dasturi), Kanada, Yaponiya, Kolumbiya, Koreya.

- Bu maqom kompaniyaga xalqaro tranzitda, chet el bojxonasida ham soddalashtirilgan tartiblar kafolatlaydi.¹¹

Meksikadagi VIO tizimining amaliy holati. Meksikada VIO tizimi SAT (Servicio de Administración Tributaria) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib 400 dan ortiq kompaniya VIO maqomini olgan va dastur doirasida faoliyat yuritmoqda. VIO maqomi berilgan korxonalar orasida eksportyorlar, importyorlar, logistika firmalari, bojxona brokerlari va ishlab chiqaruvchilar mavjud.


Amaliyotda ushbu korxonalar bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartiblaridan, xavfsizlik tekshiruvlarining kamaytirilgan hajmidan va tezlashtirilgan tranzit jarayonlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. VIO maqomi kompaniyalar uchun vaqt va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Misol uchun, SAT hisobotlariga ko'ra, VIO maqomiga ega bo'lgan kompaniyalarda bojxona yuk tekshiruvlari 30–40% kamroq hollarda amalga oshiriladi.

¹¹ SAT Mexico. (2023). *Lineamientos del Programa OEA*. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>

Biroq, tizimda haligacha bir qator cheklovlar mavjud. Kichik va o'rta biznes uchun talablarning yuqoriligi, ma'lumotlar topshirishdagi murakkablik, va baholash mezonlarining sub'ektivligi ushbu segment uchun ishtirokni qiyinlashtirmoqda¹². Shu bilan birga, ba'zi kompaniyalar o'z VIO maqomini yangilashda byurokratik kechikishlarga duch kelmoqdalar, bu esa tizimning barqarorligini pasaytirishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik masalasida esa Meksika AQSh, Kanada, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro tan olish bitimlarini imzolagan. Bu esa VIO maqomiga ega bo'lgan Meksika korxonalariga chet ellik bojxona organlari tomonidan ham ishonch bilan munosabatda bo'lish imkonini beradi.

VIO maqomini olishdagi asosiy to'siqlar. VIO maqomini olish jarayoni ko'plab korxonalar, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun murakkab va resurs talab qiluvchi hisoblanadi. Meksikada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar bu tizimga kirishda bir necha asosiy to'siqlarga duch kelmoqda.



3-rasm. VIO maqomini olishdagi asosiy to'siqlar (Meksika misolida)

Byurokratik jarayonlar. Ariza topshirish, tekshirish, hujjat yig'ish va baholash bosqichlari uzoq vaqt talab qiladi va har bir bosqichda ortiqcha ma'muriy to'siqlar mavjud¹³.

Yuqori xarajatlar. VIO maqomini olish uchun zarur bo'lgan sertifikatlash, xavfsizlik auditi va boshqa texnik talablar ko'plab kompaniyalar uchun moliyaviy jihatdan og'irlik qiladi.

Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari ushbu xarajatlarni ko'tara olmaydi. Quyida asosiy xarajat turlari keltirilgan:

¹² rvizu, L. (2017). *Evaluación de obstáculos para PYMEs dentro del programa OEA*

¹³ UNCTAD. (2022). *Cost of compliance in trade facilitation reforms*. Retrieved from: <https://unctad.org>

- Xavfsizlik auditi va texnik tayyorgarlik: tashqi konsalting xizmatlari va ichki xavfsizlik auditlari uchun xarajatlar odatda \$3,000 – \$10,000 USD oralig'ida bo'ladi.
- Ichki nazorat tizimlarini joriy qilish: elektron boshqaruv tizimlari, xavfsizlik protokollari va logistika nazoratini tashkil etish uchun \$5,000 – \$15,000 USD sarflanishi mumkin.
- Xodimlar uchun trening va malaka oshirish: bojxona, xavfsizlik va tashqi savdo bo'yicha o'quv dasturlari uchun \$500 – \$2,000 USD ajratiladi.
- Konsalting va hujjat tayyorlash xizmatlari: VIO arizasi va hujjatlari bilan ishlashda yuridik yordamga ehtiyoj tug'iladi. Bular uchun \$2,000 – \$8,000 USD atrofida to'lov qilinadi.

Rasmiy ro'yxatdan o'tish narxi: SAT Meksika rasmiy bojxona xizmatining o'zi VIO maqomini berishda bevosita to'lov olmaydi. Ya'ni, bu davlat tomonidan bepul xizmat hisoblanadi. Biroq yuqoridagi barcha tayyorgarlik xarajatlari kompaniyaning o'z zimmasida bo'ladi¹⁴.

Texnik talablar. Talablar ko'p hollarda yirik kompaniyalarga moslangan bo'lib, kichik biznes imkoniyatlari e'tiborga olinmagan. Natijada, VIO dasturida ularning ishtiroki nihoyatda past bo'lmoqda³. VIO maqomini olish uchun korxonalar quyidagi mezonlar va talablarni bajargan bo'lishi zarur. Bu talablar Servicio de Administración Tributaria (SAT) tomonidan belgilanadi va "OEA Lineamientos Generales" hujjatida batafsil yoritilgan:

1. Yuridik maqomga ega bo'lish: Ariza beruvchi kompaniya qonuniy ravishda ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan bo'lishi kerak.
2. Savdo faoliyati tajribasi: So'nggi kamida 3 yil davomida tashqi iqtisodiy faoliyat (import, eksport, logistika) bilan shug'ullangan bo'lishi lozim.
3. Moliyaviy barqarorlik: Soliq qarzlar mavjud bo'lmasligi va hisobotlarda moliyaviy sog'lomlikni tasdiqlovchi hujjatlar.
4. Ichki nazorat tizimi: Kompaniyada tovar harakati, bojxona hujjatlari, xavfsizlik protokollari va ma'lumotlarni kuzatib borish tizimi mavjud bo'lishi zarur.
5. Xavfsizlik talablari: Tashqi va ichki xavfsizlik choralariga rioya qilish (fizik xavfsizlik, xodimlar nazorati, transport vositalari xavfsizligi, hujjatlar yaxlitligi va h.k.) hamda xavfsizlik bo'yicha auditdan muvaffaqiyatli o'tish.
6. Bojxona qonunchiligiga rioya qilganlik: So'nggi yillarda bojxona qoidabuzarliklari aniqlanmagan bo'lishi.
7. Elektron boshqaruv tizimlaridan foydalanish: Bojxona operatsiyalari elektron shaklda yuritilishi, e-hujjatlar bilan ishlash amaliyoti mavjud bo'lishi.
8. Trening va xodimlar tayyorgarligi: Xodimlar bojxona, xavfsizlik va tashqi savdo jarayonlari bo'yicha tayyorlangan bo'lishi kerak.

¹⁴ Castañeda, J. (2021). *Avances del programa OEA en México*. Revista Comercio Global.

9. Tashrif va auditga tayyorgarlik: SAT tomonidan amalga oshiriladigan joyidagi auditlarga to'liq tayyor holatda bo'lish¹⁵.

Ma'lumot yetishmasligi. Kompaniyalar o'rtasida tizim haqida yetarli axborot yo'qligi sababli ular VIO dasturining afzalliklari va qanday ishlash mexanizmlarini tushunmaydi. Bu esa dasturga ishtirok etish istagini pasaytiradi.

Taklif va tavsiyalar. Meksika VIO dasturining samaradorligini oshirish uchun kompleks va institutsional yondashuv talab etiladi. Avvalo, sertifikatlash jarayonining soddalashtirilishi zarur. Meksikadagi VIO dasturini isloh qilish bo'yicha ilmiy manbalar va xalqaro tajriba asosida quyidagi takliflarni aytib o'tishimiz mumkin:

❖ VIO-light modeli joriy etish – Kichik va o'rta korxonalar uchun soddalashtirilgan VIO variantini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu modelda talablar va audit bosqichlari yirik kompaniyalar darajasidan biroz yengillashtirilgan bo'ladi, ammo asosiy xavfsizlik va ishonchlilik me'zonlariga to'liq rioya qilinadi. Braziliya, Janubiy Koreya va Indoneziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv orqali kichik bizneslar VIO dasturiga faolroq jalb etilgan (UNCTAD, 2022). Bunday yondashuv Meksikadagi VIO qamrovini sezilarli darajada oshiradi¹⁶.

❖ Raqamlashtirish va avtomatlashtirish – VIO maqomini olishda raqamli platformalarning joriy etilishi korxonalarga ancha qulaylik yaratadi. Elektron ariza topshirish, real vaqt rejimida hujjatlarni kuzatish, onlayn monitoring, xavfsizlikni baholash uchun elektron dasturlar VIO tizimini shaffof va tezkor qiladi. WCO'ning 2023-yildagi tavsiyalariga ko'ra, digitalizatsiya VIO ishtirokchilarining sonini 30% gacha oshirishi mumkin. Bu Meksikada byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va korxonalar orasida ishonchni mustahkamlaydi¹⁷.

❖ Qamrovli o'quv dasturlari – VIO tizimining samarali ishlashi uchun korxonalar xodimlarining yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi muhim. Shu sababli, SAT tomonidan maxsus o'quv kurslari va seminarlar tashkil etilishi lozim. Bu kurslar bojxona tartiblari, xavfsizlik mezonlari, xalqaro savdo hujjatlari bo'yicha bo'lishi va davlat-xususiy sektor hamkorligida o'tkazilishi mumkin. Ushbu tadbirlar orqali tizim haqida xabardorlik ortadi va ishtirokchilarning sifati oshadi.

❖ Davlat tomonidan moliyaviy yordam – VIO tizimiga kirish bilan bog'liq xarajatlar, ayniqsa kichik korxonalar uchun jiddiy to'siqdir. Shu sababli, ularni rag'batlantirish uchun subsidiya, soliq imtiyozlari, kreditlar yoki grant dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.

¹⁵ SAT Mexico. (2023). *Lineamientos del programa Operador Económico Autorizado (OEA)*. Servicio de Administración Tributaria. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>

¹⁶ UNCTAD. (2022). *AEO programs for SMEs: Best practices from Latin America and Asia*.

¹⁷ World Customs Organization. (2023). *Digital Customs and the Future of Trade*.

Bunday choralar orqali davlat kichik biznesning global savdoga kirishini qoʻllab-quvvatlaydi, bu esa iqtisodiy inkluzivlikni oshiradi¹⁸.

❖ Xalqaro integratsiyani kengaytirish – Meksika VIO dasturining xalqaro darajada eʼtirof etilishi uchun yangi oʻzaro tan olish (MRA) kelishuvlari zarur. Ayni paytda Meksika AQSh, Kanada va Yevropa Ittifoqi bilan bunday bitimlarga ega boʻlsa-da, bu doirani kengaytirish orqali kompaniyalar koʻproq davlatlarda imtiyozlardan foydalana oladi. Bu esa global raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribani taqqoslash asosida takomillashtirish yoʻllarini belgilash. VIO dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tajribalari dunyoning bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida kuzatilgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya, Braziliya va Singapur VIO tizimlarini samarali joriy etib, bojxona soddalashtirish va savdo xavfsizligini bir vaqtda taʼminlashga erishgan.

❖ Yevropa Ittifoqi – VIO tizimi huquqiy mustahkamlash orqali yagona bojxona maydoni boʻyicha tan olinadi. VIO maqomi bojxona qonunchiligiga toʻliq rioya etgan ishonchli korxonalarga beriladi. Bu mintaqaviy integratsiya orqali savdo oqimini soddalashtirishga xizmat qiladi¹⁹.

❖ AQSh – Customs-Trade Partnership Against Terrorism (C-TPAT) dasturi VIO tamoyillariga asoslangan boʻlib, xavfsizlikka asosiy eʼtibor qaratadi. Ushbu dasturda korxonalarning xavfsizlik tahlili va auditlariga alohida urgʻu beriladi²⁰.

❖ Janubiy Koreya – bu davlatda VIO tizimi raqamlashtirilgan va real vaqtli monitoring tizimlari asosida ishlaydi. Kichik va oʻrta korxonalar uchun VIO-light modeli joriy qilingan boʻlib, bu ishtirokchilar sonini keskin oshirgan²¹.

❖ Braziliya – “Programa OEA” modeli bosqichma-bosqich joriy etilgan boʻlib, kompaniyalarga xavfsizlik, bojxona tartibiga rioya qilish va savdo samaradorligi mezonlari asosida baho beriladi. Ular uchun modul asosidagi baholash joriy qilingan²².

❖ Singapur – Singapur bojxona xizmati VIO dasturini xalqaro savdo infratuzilmasi bilan integratsiyalagan. Sertifikatlangan korxonalar elektron bojxona kanallari orqali soddalashtirilgan tartibdan foydalanadi²³.

¹⁸ SAT Mexico. (2023). *Política de estímulos fiscales para PYMEs en comercio exterior*.

¹⁹ European Commission. (2022). *EU Authorised Economic Operator Guidelines*. Retrieved from <https://taxation-customs.ec.europa.eu>

²⁰ U.S. Customs and Border Protection (CBP). (2023). *Customs-Trade Partnership Against Terrorism (C-TPAT)*. Retrieved from <https://www.cbp.gov>

²¹ Korea Customs Service. (2022). *Korea AEO Program Overview*. Retrieved from <https://english.customs.go.kr>

²² Receita Federal do Brasil. (2021). *Programa OEA Brasil*. Retrieved from <https://www.gov.br/receitafederal>

Xulosa. Meksikadagi vakolatli iqtisodiy operator (VIO) dasturi xalqaro savdo xavfsizligini ta'minlash, bojxona tartiblarini soddalashtirish va ishonchli korxonalarni rag'batlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim institutsional mexanizmdir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, VIO dasturi Meksika bojxona siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, korxonalar sonining izchil ortib borayotgani va qamrov doirasining kengayishi bu tizimga bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi. Tahlil davomida aniqlanishicha, dasturdan asosan tashqi savdo, logistika, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar foydalanmoqda. Bu esa VIO tizimining global savdo zanjirlariga integratsiyalashishdagi o'rni va ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Braziliya, Singapur) shuni ko'rsatadiki, VIO dasturining muvaffaqiyati nafaqat qonunchilik, balki institutsional moslashuvchanlik, texnologik innovatsiyalar va xususiy sektor bilan samarali hamkorlikka bog'liq.

Shunday qilib, VIO dasturining Meksikadagi samaradorligini oshirish uchun ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda, tizimli, bosqichma-bosqich va inklyuziv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola doirasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan taqdirda, Meksikaning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligi, bojxona samaradorligi va iqtisodiy barqarorligi sezilarli darajada ortadi.

REFERENCES

1. Arvizu, L. (2017). *Evaluación de obstáculos para PYMEs dentro del programa OEA*. *Journal of International Trade & Customs Studies*.
2. Castañeda, J. (2021). *Avances del programa OEA en México y su reconocimiento internacional*. *Revista Comercio Global*.
3. European Commission. (2022). *EU Authorised Economic Operator Guidelines*. Retrieved from: <https://taxation-customs.ec.europa.eu>
4. Korea Customs Service. (2022). *Korea VIO Program Overview*. Retrieved from: <https://english.customs.go.kr>
5. Receita Federal do Brasil. (2021). *Programa OEA Brasil*. Retrieved from: <https://www.gov.br/receitafederal>
6. SAT Mexico. (2023). *Programa Operador Económico Autorizado (OEA)*. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>

²³ Singapore Customs. (2022). *Secure Trade Partnership (STP) – Singapore's AEO Programme*. Retrieved from <https://www.customs.gov.sg>

7. SAT Mexico. (2023). *Reporte anual del programa OEA*. Servicio de Administración Tributaria. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>
8. SAT Mexico. (2023). *Lineamientos del Programa OEA*. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>
9. SAT Mexico. (2023). *Distribución sectorial de las empresas con certificación OEA*. Retrieved from: <https://www.sat.gob.mx>
10. Singapore Customs. (2022). *Secure Trade Partnership (STP) – Singapore's VIO Programme*. Retrieved from: <https://www.customs.gov.sg>
11. UNCTAD. (2022). *Trade Facilitation and Customs Procedures in Mexico*. Retrieved from: <https://unctad.org>
12. UNCTAD. (2022). *Cost of compliance in trade facilitation reforms*. Retrieved from: <https://unctad.org>
13. UNCTAD. (2022). *Digital Trade Facilitation and VIO Impact Studies: Mexico*. Retrieved from: <https://unctad.org>
14. UNCTAD. (2022). *VIO programs for SMEs: Best practices from Latin America and Asia*. Retrieved from: <https://unctad.org>
15. U.S. Customs and Border Protection (CBP). (2023). *Customs-Trade Partnership Against Terrorism (C-TPAT)*. Retrieved from: <https://www.cbp.gov>
16. World Customs Organization (WCO). (2023). *Authorized Economic Operator (VIO) Programmes*. Retrieved from: <https://www.wcoomd.org>
17. World Customs Organization (WCO). (2023). *Mutual Recognition Arrangements in Latin America*. Retrieved from: <https://www.wcoomd.org>
18. World Customs Organization (WCO). (2023). *Digital Customs and the Future of Trade*. Retrieved from: <https://www.wcoomd.org>
19. World Customs Organization (WCO). (2023). *Mutual Recognition Arrangements and Global Trade*. Retrieved from: <https://www.wcoomd.org>